

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 336.226.322:658.1(575.1)

YO‘LDOSHEV SHOHRUH BOBORAHIM O‘G‘LI

**BILVOSITA SOLIQLARNING KORXONA MOLIYAVIY-XO‘JALIK
FAOLIYATIGA TA’SIRI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: iqtisod fanlari doktori,
professor Kuziyeva N.R.**

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I bob. BILVOSITA SOLIQLARNING KORXONA MOLİYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATIGA TA’SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
1.1. Bilvosita soliqlar: mazmuni, genezisi va hozirgi zamon sharoitidagi transformatsiyasi.....	12
1.2. Korxonalar moliyaviy-xo‘jalik holati shakllanishida bilvosita soliqlar orqali qo‘shilgan qiymatni taqsimlashning konseptual asoslari va shartlari.....	28
1.3. Bilvosita soliqlar samarali soliq mexanizmiga oid xorij tajribalari.. I bob bo‘yicha xulosalar.....	39 50
II bob. BILVOSITA SOLIQLARNING KORXONA MOLİYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATIGA TA’SIRINI BAHOLASH HOZIRGI ZAMON AMALIYOTINING TAHLILI.....	51
2.1. Bilvosita soliqlar elementlari, xususiyatlari, korxona moliyasiga ta’siri va rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	52
2.2. Bilvosita soliqlar fiskal va iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyoti tahlili (QQS misolida).....	68
2.3. Bilvosita soliqlarning korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini baholash uslubiy asoslariga oid munozaralar tahlili.....	80
2.4. Bilvosita soliqlarning korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’siri omillarini iqtisodiy modelashtirish.....	97
II bob bo‘yicha xulosalar.....	103
III bob. BILVOSITA SOLIQLARNING KORXONA MOLİYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATIGA TA’SIRINI OPTIMALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....	106
3.1. Bilvosita soliqlar ma’muriyatchiligi samarali usul va vositalari ta’sirchanligini oshirish yo‘nalishlari.....	106
3.2. Bilvosita soliqlarning korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini optimallashtirish istiqbollarini ilmiy asoslash.....	124
III bob bo‘yicha xulosalar.....	137
XULOSA.....	139
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	144
ILOVALAR.....	153

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish va biznes erkinligi ahamiyatining o'sishi, fiskal siyosat va soliq to'lovchilar soliq salohiyatini oshirish muammolarining keskinlashuvi, soliq tizimi modernizatsiyasining samarali vositalarini davlat tomonidan qo'llash ko'p jihatdan bilvosita soliqlar samarali mexanizmi tashkil etilishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Yevropa mamlakatlarida bilvosita soliqlarning roli Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi¹. Mamlakatimizda bilvosita soliqlar budjet daromadlarining 32-33 foizini tashkil qilishi mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Jahon amaliyotida bilvosita soliqlar orqali budjet daromadlarini shakllantirish va ulushini oshirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlarda bilvosita soliqlar yuzasidan soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirishning muhim yo'llari, mamlakat miqyosida iqtisodiyotning erkinlashuvi jarayoni, davlat budjeti daromad bazasini mustahkamlash va uning shakllanishida ishtirok etuvchi soliq to'lovchilar imkoniyatlarini yaxshilash borasida fikr-mulohazalar yuritilmoqda hamda uzluksiz ravishda takomillashtirilmoqda. Soliq tizimining samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan davlat tadbirlarini amalga oshirish, bilvosita soliqlar samarali mexanizmi shakllanishiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar shular jumlasidandir.

O'zbekistonda soliq tizimi modernizatsiyasiga oid olib borilayotgan islohotlar bilvosita soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini optimallashtirishning samarali mexanizmi shakllanishi lozimligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Soliq ma'muriyatchiligi shunday bo'lishi kerakki, qo'shilgan qiymat solig'i keng joriy

¹GijsbertBulk.Exciseandotherindirecttaxesin.www//ey.inderecttaxes.comhttps://lenta.ru/news/2017/10/01/sin_tax/www.business.ru/news saytidan olingan.

qilinsa ham bu holat iste'mol tovarlarining narxi o'sishiga olib kelmasligi shart va zarur"². Hozirda "Soliq tizimida eng ichki o'zgaruvchan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ko'plab omillari bilan to'qnashuvchi soliqlar sifatida qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i ma'muriyatchiligining samarali rejimini tanlash" masalasi Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo'yicha Yo'l xaritasi³da muhim yo'nalish sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning bajarilishini ta'minlashda bilvosita soliqlar yuzasidan soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish ustuvorlik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 26-sentabrdagi PF-5837-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-son "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-noyabrdagi 736-son "Soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2018-yil 29-dekabr.

³ Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini 2022-yilda amalga oshirish bo'yicha Yo'l xaritasi – www.lex.uz

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda mamlakatimiz soliq amaliyotidagi “qo‘shilgan qiymatni taqsimlashning soliq mexanizmi” tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda o‘ta tortishuvli hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, mazkur ibora xorij tajribasidan va tadqiqotlaridan olingan bo‘lib, uning tarjimasi har doim ham aniq bo‘lavermagan.

Soliqlarning bozor iqtisodiyotiga transformatsiyalashuvi jarayoniga ta’siri, soliqqa tortishning samaraliroq modeliga o‘tish strategiyasi, budjet-soliq amaliyotining nazariy-metodologik jihatlarini tadqiqiga bir qator zamonaviy olimlar – B.Aliyev, A.Astakhov, L.Abalkin, A.Bryzgalin, O.Vrublevskaya, I.Gorskiy, L.Goncharenko, A.Gryaznova, A.Dadashev, T.Zhuravlyova, V.Kashin, V.Korovkin, Z.Klyukovich, I.Mayburov, L.Pavlova, V.Panskiy, I.Peronko, S.Pepelyayev, G.Polyak, V.Pushkareva, M.Romanovskiy, A.Romanov, A.Serdyukov, D.Chernik, S.Shatalov, T.Yutkina va boshqalarning ishi bag‘ishlangan⁴.

⁴ Алиев Б.М. Налоги и налогообложение в условиях переходной экономики. – Баку: Элм, 2002. – 312 с.; Астахов А.И. Налоговая политика государства. – М.: Финансы и статистика, 2012. – 280 с.; Абалкин Л.И. Стратегия экономической реформы и налоговая система. – М.: Экономика, 2000. – 256 с.; Брызгалин А.В. Теория налогов и налоговое право. – М.: Налоги и финансовое право, 2021. – 648 с.; Романовский М.В., Врублевская О.В., Дьяконова И.А. Налоги и налогообложение. – М.: Юрайт, 2022. – 400 с.; Горский И. Финансовое право: Учебник. – М.: Эксмо, 2014. – 448 с.; Гончаренко Л.И. Современные подходы к налогообложению хозяйствующих субъектов. – М.: Экономика, 2018. – 292 с.; Грязнова А.Г., Федотова М.А. Анализ финансово-хозяйственной деятельности. – М.: Финансы и статистика, 2020. – 496 с.; Дадасhev А.А. Финансовая система и налоговая политика. – М.: Дело и Сервис, 2017. – 320 с.; Журавлева Т.В. Государственные финансы и фискальная политика. – М.: Юрайт, 2019. – 368 с.; Кашин В.А. Финансы и налоги: практическое руководство. – М.: Дашков и К, 2015. – 320 с.; Коровкин В.И. Налоговая система и налоговое регулирование экономики. – М.: Финансы и статистика, 2010. – 288 с.; Ключович З.И. Косвенное налогообложение в системе государственного регулирования. – М.: Эксмо, 2014. – 285 с.; Майбуров И.А. Налоги и налогообложение: теория и практика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2020. – 560 с.; Павлова Л.Н. Финансы предприятий. – М.: Финансы и статистика, 2018. – 416 с.; Панский В.А. Налоги и развитие предпринимательства. – СПб.: Питер, 2016. – 318 с.; Перонко И.П. Налоговая система и ее совершенствование в современной экономике. – М.: Экономика, 2013. – 270 с.; Пепеляев С.Г. Практика налогового планирования. – М.: Волтерс Клувер, 2010. – 378 с.; Поляк Г.Б. Финансы. Учебник. – М.: Юрайт, 2020. – 528 с.; Пушкарева